“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=328

2025-yil
3-son
oktabr
ISSN 3093-8546



# O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquqlarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlikning yangi asoslari

*Shoxrux Abduraximov,*
*Mirzo Ulug'bek nomidagi milliy universitetning Ijtimoiy fanlar fakulteti o'qituvchisi*
*Huquqshunos*
*e-mail: sh.sh.abduraximov@gmail.com*

***Аннотация.*** Maqolada O‘zbekiston Respublikasida ixtiro va sanoat mulki obyektlarini jinoyat-huquqiy himoya qilishning yangi bosqichi tahlil qilingan. So‘nggi yillarda milliy qonunchilikda intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilishga oid muhim islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, Jinoyat kodeksiga kiritilgan yangi norma orqali ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, integral mikrosxema topologiyasi va seleksiya yutuqlariga bo‘lgan huquqlarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Ushbu yangilik huquq egalarining manfaatlarini samarali himoya qilish, kontrafakt mahsulotlar oqimini kamaytirish hamda xalqaro standartlarga, xususan TRIPS kelishuvi talablariga moslashish imkonini bermoqda.Maqolada yangi normalarning mazmuni, huquqni qo‘llash amaliyotida uchrayotgan muammolar va dolzarb masalalar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, patent ekspertizasi jarayonidagi qiyinchiliklar, zarar miqdorini aniqlash muammolari, huquqni qo‘llash organlari faoliyatida institutsional to‘siqlar hamda huquqiy savodxonlik masalalari yoritilgan. Shuningdek, Germaniya, Fransiya, AQSh, Rossiya va Qozog‘iston tajribasi o‘rganilib, milliy yondashuvning o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatib berilgan.

***Калит сўзлар.*** intellektual mulk, ixtiro, sanoat mulki obyektlari, jinoyat-huquqiy himoya, kontrafakt mahsulot, TRIPS, O‘zbekiston qonunchiligi

***Аннотация.*** В статье проанализирован новый этап уголовно-правовой охраны изобретений и объектов промышленной собственности в Республике Узбекистан. В последние годы в национальном законодательстве были проведены важные реформы, касающиеся правовой охраны объектов интеллектуальной собственности. В частности, новой нормой, введенной в УК, установлена уголовная ответственность за нарушение прав на изобретение, полезную модель, промышленный образец, топологию интегральных схем и селекционные достижения. Данное нововведение позволяет эффективно защищать интересы правообладателей, сокращать поток контрафактной продукции и приспосабливаться к международным стандартам, в частности требованиям Соглашения трипс.В статье научно анализируется содержание новых норм, проблемы и актуальные вопросы, с которыми

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

сталкивается правоприменительная практика. В частности, освещаются трудности процесса патентной экспертизы, проблемы определения размера ущерба, институциональные барьеры в деятельности правоохранительных органов, а также вопросы правовой грамотности. Также изучен опыт Германии, Франции, США, России и Казахстана, показаны специфические аспекты национального подхода.

***Ключевые слова.*** интеллектуальная собственность, изобретения, объекты промышленной собственности, уголовно-правовая защита, контрафактная продукция, трипс, законодательство Узбекистана

***Annotation.*** The article analyzes a new stage of criminal justice protection of the objects of invention and industrial property in the Republic of Uzbekistan. In recent years, there have been significant reforms in national legislation regarding the legal protection of intellectual property facilities. In particular, through the new norm introduced in the Criminal Code, criminal liability was established for violation of the rights to the achievements of invention, utility model, industrial sample, integral microcircuit topology and selection. This innovation makes it possible to effectively protect the interests of rights holders, reduce the flow of contractual products and adapt to international standards, in particular the requirements of the TRIPS Agreement.The article will scientifically analyze the content of new norms, problems encountered in law enforcement practice and current issues. In particular, the issues of difficulties in the process of patent examination, problems of determining the amount of damage, institutional barriers to law enforcement activities and legal literacy are covered. Also, the experience of Germany, France, the United States, Russia and Kazakhstan was studied, showing the peculiarities of the national approach.

***Keywords.*** intellectual property, invention, objects of industrial property, criminal justice protection, contrafactual product, TRIPS, legislation of Uzbekistan

## Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot davrida intellektual mulk (IM) obyektlarini samarali himoya qilish masalasi davlatlarning barqaror rivojlanishi va innovatsion salohiyatini oshirishda hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ixtirolar, foydali modelllar, sanoat namunalari, integral mikrosxema topologiyalari hamda seleksiya yutuqlari nafaqat ilmiy-texnik taraqqiyotning mahsuli, balki xalqaro savdo va investitsiyalarni jalb etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan iqtisodiy resurslardir. Shu bois mazkur obyektlarni huquqiy jihatdan himoya qilish, ularni noqonuniy egallash va tijorat maqsadida ruxsatsiz foydalanishga qarshi qat’iy choralarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda intellektual mulkni muhofaza qilish bo‘yicha keng ko’lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Avval intellektual mulk huquqining buzilishi fuqarolik huquqiy va ma’muriy javobgarlik keltirib chiqargan bo’lsa, endilikda

jinoiy javobgarlik ham belgilanmoqda. Jumladan, ixtiro va sanoat mulki obyektlariga bo‘lgan huquqlarni buzganlik uchun Jinoyat kodeksiga alohida norma kiritilishi ushbu yo‘nalishda tub burilish yasadi. Mazkur o‘zgarish, bir tomondan, huquq egalarining manfaatlarini yanada ishonchli himoya qilishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, noqonuniy harakatlarning oldini olish va ularning ijtimoiy “xavfsizlantirish” xizmat qiladi.

Yangi tartibning joriy etilishi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi majburiyatlariga, xususan, Jahon Savdo Tashkiloti (JST) doirasidagi TRIPS kelishuvi talablariga mos keladi. Bundan tashqari, ichki bozorni kontrafakt mahsulotlardan himoya qilish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ushbu maqolada ixtiro va sanoat mulki obyektlarini jinoiy huquqiy himoya qilishning yangi bosqichini tahlil qilish, milliy huquqiy bazaning imkoniyatlari va kamchiliklarini aniqlash, shuningdek, xorijiy tajribani solishtirish asosida takliflar berishni maqsad qilgan.

O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish tizimi Konstitutsiya, fuqarolik qonunchiligi hamda maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi. Xususan, **O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1033-moddasida** intellektual faoliyat natijalari va ularga tenglashtirilgan vositalar intellektual mulk sifatida e’tirof etilgan. Shu asosda “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”gi Qonun mazkur obyektlarning huquqiy maqomini belgilab bergan [1].

Biroq uzoq vaqt davomida ushbu huquqlarni buzganlik uchun asosan fuqarolik huquqiy va ma’muriy javobgarlik choralari mavjud bo‘lib, ularning jinoiy huquqiy kafolatlari yetarli darajada mustahkamlanmagan edi. Shu bois, 2025-yilda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquqlarning buzilishiga nisbatan jinoiy javobgarlikning belgilanishi mazkur sohada tub burilish hisoblanadi. Yangi normalar ixtiro, foydali model, sanoat namunasi (Jinoyat kodeksining 1493-moddasi), integral mikrosxema topologiyasi va seleksiya yutuqlariga bo‘lgan huquqlarni buzganlik uchun **jinoiy javobgarlik**ni nazarda tutadi. Bu o‘zgarish orqali huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavflilik darajasi oshirilib, og‘irroq javobgarlik belgilandi [2].

Mazkur o‘zgarishning amaliy mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin:

**Birinchidan**, jinoyat tarkibining aniq belgilanishi intellektual mulk egalarining manfaatlarini himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

**Ikkinchidan**, zarar qoplangan taqdirda jazo choralari qo‘llanilmasligi huquqiy tizimda adolat va restituiv yondashuvning ustuvorligini ko‘rsatmoqda [3].

**Uchinchidan**, jinoyat-huquqiy choralar profilaktik vazifani ham bajarib, kontrafakt mahsulotlarning bozorga kirib kelishini sezilarli darajada kamaytirishi kutilmoqda.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Xalqaro huquqiy majburiyatlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekiston 1991-yildan boshlab intellektual mulkni muhofaza qilish bo‘yicha bir qator xalqaro shartnomalarga qo‘shilgan. Jumladan, Parij konvensiyasi (1883-y.) va Patent kooperatsiyasi shartnomasi (1970-y.) intellektual mulk obyektlarini xalqaro darajada tan olinishini kafolatlaydi. Shuningdek, mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayonida **TRIPS kelishuvi (1994-y.)** talablarini milliy qonunchilikka uyg‘unlashtirish dolzarb masala sifatida ko‘rilmoqda [4]. Shu ma’noda, ixtirolar va sanoat mulki obyektlarini jinoiy-huquqiy himoya qilish mexanizmlarining yaratilishi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi siyosatiga hamohangdir.

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlasak, Yevropa mamlakatlarida intellektual mulk huquqlarini buzish ko‘pincha fuqarolik-huquqiy vositalar orqali hal etiladi. Masalan, Germaniya va Fransiyada patent huquqlarini buzganlik odatda fuqarolik da’volar qo’zg’atish yo’li bilan hal qilinadi, jinoyat-huquqiy javobgarlik esa faqat og‘ir oqibatlarga olib kelgan hollardagina qo‘llaniladi [5]. Rossiya Federatsiyasi hamda Qozog‘iston Respublikasida esa O‘zbekiston tajribasiga yaqin yondashuv mavjud: ushbu davlatlar Jinoyat kodekslarida intellektual mulk obyektlariga tajovuz qilganlik uchun maxsus normalar belgilagan [6]. Demak, O‘zbekistonning yangi yondashuvi mintaqaviy tendensiyalar bilan uyg‘un bo‘lib, ichki bozorni kontrafakt mahsulotlardan himoya qilishga xizmat qiladi.

Shu tarzda, O‘zbekistonda intellektual mulk obyektlarini jinoyat-huquqiy himoya qilishning yangi vositasi o’laroq nafaqat milliy huquq tizimini mustahkamlash, balki xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida ham muhim qadamlardan biri sifatida baholanadi.

**III bob. Amaliy muammolar va dolzarb masalalar**

Intellektual mulk obyektlarini jinoyat-huquqiy himoya qilish bo‘yicha normativ asoslar mustahkamlangan bo‘lsa-da, amaliyotda bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Bu muammolarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: **dalillash muammolari**, **organlar faoliyatidagi institutsional qiyinchiliklar**.

**1. Dalillash va ekspertiza muammolari**

Jinoyat protsessida ixtiro yoki sanoat mulki obyektiga oid huquqbuzarlikni isbotlash uchun avvalo ushbu obyektning patent bilan himoya qilinganligi tasdiqlanishi kerak. Bu jarayon ko‘p hollarda **patent ekspertizasi** xulosasini talab qiladi. Amaliyotda esa ekspertlarning yetishmasligi, sud-tergov organlarining maxsus bilimga ega emasligi ishlarning cho‘zilib ketishiga olib keladi [7]. Bundan tashqari, zarar miqdorini aniqlash ham murakkab masalalardan biri bo‘lib, kontrafakt mahsulotlar hajmini, bozor bahosini va huquq egasining yo‘qotgan foydasini hisoblashda turli metodlar qo‘llaniladi. Bu esa sud qarorlarida bir xillikning ta’minlanishini qiyinlashtiradi.

**2. Organlar faoliyatidagi institutsional qiyinchiliklar**

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

So‘nggi yillarda bojxona organlariga kontrafakt mahsulotlarni aniqlash va musodara qilish bo‘yicha “**ex officio” vakolatlar** berilgan bo‘lsa-da, bu vakolatlarning samarali ishlashi uchun moddiy-texnik baza va malakali kadrlar yetarli emas. Masalan, bojxona nazorat punktlarida mahsulotning asl yoki soxta ekanini aniqlash tezkor ekspertiza talab qiladi. Shu bois ayrim kontrafakt mahsulotlar baribir ichki bozorga kirib kelmoqda [8]. Bundan tashqari, huquqbuzarlikni aniqlashdan jinoyat ishini qo‘zg‘atishgacha bo‘lgan bosqichlarda turli organlar o‘rtasida muvofiqlashtirish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

**3. Dolzarb masalalar**

Amaliyotda yana bir muhim dolzarb masala — jinoyat-huquqiy choralar bilan fuqarolik-huquqiy himoya o‘rtasidagi muvozanatdir. Masalan, sud huquq egasiga statutar kompensatsiya belgilab bera oladi, shu bilan birga jinoyat-huquqiy javobgarlik ham qo‘llanilishi mumkin. Mazkur ikki chorani uyg‘unlashtirish mexanizmlari to‘liq ishlab chiqilmagan. Xalqaro tajribada, xususan Germaniya va Fransiyada, odatda jinoyat-huquqiy choralar faqat og‘ir oqibatlarda qo‘llanadi [10], O‘zbekistonda esa bu choralar kengroq tatbiq qilinmoqda va zararning aniq miqdori belgilanmagan. Bu esa investorlar uchun huquqiy muhitni barqarorlashtirsa-da, tadbirkorlik subyektlari uchun qo‘shimcha xavflarni yuzaga keltiradi.

Shuningdek, jinoyat-huquqiy norma yangi joriy etilganligi sababli sud amaliyoti hali shakllanmagan. Bu turdagi ishlarni ko’rish bilan bog’liq **Oliy sud Plenum qarori**ning hali mavjud emasligi sudlar tomonidan jinoiy ishga turlicha yondashuvni keltirib chiqaradi. Bu holat huquqni qo‘llashda barqarorlikka putur yetkazishi mumkin.

**IV bob. Xorijiy tajriba va taqqoslash**

Ixtiro va sanoat mulki obyektlarini jinoyat-huquqiy muhofaza qilish bo‘yicha barcha davlatlarning yondashuvlari bir xil emas. Aksar mamlakatlarda ushbu huquqbuzarliklar asosan fuqarolik-huquqiy nizolar sifatida ko‘rilsa, boshqa davlatlarda ular jinoiy javobgarlik choralariga ham belgilangan. Shu bois O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan yangi norma mintaqaviy va xalqaro tajriba fonida o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

**1. Yevropa tajribasi**

Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarda intellektual mulk huquqlarini buzish odatda fuqarolik-huquqiy vositalar orqali tartibga solinadi. Masalan, **Germaniya** va **Fransiya**da patent huquqlarini buzganlik ko‘pincha fuqarolik da’volari qo’zg’atiladi, jinoiy javobgarlik esa faqat o‘ta og‘ir oqibatlarga olib kelgan hollarda (katta miqdorda zarar yetkazish yoki takroran sodir etish) qo‘llaniladi [11]. Yevropa Ittifoqi doirasida esa 2004-yilda qabul qilingan **IPRED (Intellectual Property Rights Enforcement Directive)** intellektual mulkni huquqiy himoya qilishning umumiy standartlarini belgilb bergan, ammo jinoyat-huquqiy sanksiyalarni qo’llashni davlatlarning o‘z ixtiyoriga qoldirgan.

**2. AQSh tajribasi**

AQShda patent huquqlarini buzish odatda fuqarolik-huquqiy ish sifatida ko‘riladi va asosiy ta’sir choralari – **zararni qoplash hamda kompensatsiya** hisoblanadi. Biroq mualliflik huquqi va tovar belgilaridan noqonuniy foydalanish, ayniqsa kontrafakt mahsulotlarni ommaviy ishlab chiqarish va tarqatish Jinoiy mualliflik huquqining buzilishi **(Criminal Copyright Infringement)** to’g’risidagi qonunga ko’ra jinoiy javobgarlik ham nazarda tutilgan [12]. Bu O‘zbekistondagi modeldan farq qiladi. Chunki bizda faqat mualliflik huquqining buzilishi bilan bog’liq emas, balki sanoat mulki obyektlariga nisbatan huquqlarning buzilishi bilan ham bog’liq maxsus jinoiy huquqiy normalar kiritilgan.

**3. Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘iston tajribasi**

**Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 147-moddasida** ixtirochilik va patent huquqlari buzilishi bilan bog’liq jinoiy javobgarlik belgilangan. Bu norma huquqbuzar tomonidan sanoat mulki obyektining egasiga zarar yetkazilgan yoki huquqlari boshqa shaklda buzilgan taqdirda qo‘llaniladi. **Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 198-moddasi**da ham sanoat mulki obyektlariga bo‘lgan huquqlarni buzganlik jinoyat sifatida baholanadi [13]. Demak, O‘zbekistonning yangi normalari mintaqadagi asosiy davlatlar qonunchiligiga yaqinlashganini ko‘ramiz.

**4. Xalqaro standartlar**

Jahon savdo tashkiloti doirasidagi **TRIPS kelishuvi (1994-y.)** intellektual mulkni huquqiy muhofaza qilishning minimal standartlarini belgilaydi. Unga ko‘ra, a’zo davlatlar intellektual mulk huquqlarini buzganlik uchun samarali choralarni, shu jumladan jinoiy-huquqiy sanksiyalarni nazarda tutishi lozim, ayniqsa kontrafakt mahsulotlarning keng ko‘lamda ishlab chiqarilishi va tarqatilishi bilan bog‘liq hollarda [14]. O‘zbekistonning 2025-yilda qabul qilingan islohoti TRIPS talablari bilan uyg‘un keladi va xalqaro hamjamiyat oldidagi majburiyatlarni bajarish yo‘lida muhim qadamlardan biri sifatida baholanishi mumkin.

**5. Taqqoslash natijalari**

O‘zbekiston modeli o‘ziga xos tarzda “o‘rtacha qat’iylik” yondashuvini tanladi: bir tomondan, jinoiy javobgarlik normasi Rossiya va Qozog‘iston tajribasiga mos keladi, ikkinchi tomondan, profilaktika va adolat mezonlari – zarar qoplanganda jazo chorasi qo‘llanmasligi – Yevropa huquqiy an’analari bilan hamohangdir. Shu bois milliy yondashuvni “kombinatsiyalashgan model” sifatida baholash mumkin.

**V bob. Xulosa va takliflar**

O‘zbekiston Respublikasida ixtiro va sanoat mulki obyektlarini jinoyat-huquqiy muhofaza qilish bo‘yicha qabul qilingan yangi normalar huquq tizimida sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi. Jinoyat kodeksiga kiritilgan o‘zgarishlar mamlakatning innovatsion rivojlanish strategiyasi, xalqaro majburiyatlari va mintaqaviy huquqiy tendensiyalar bilan uyg‘unlashgan holda huquq egalarining manfaatlarini yanada kengroq himoya qilishga qaratilganini ko‘rish mumkin.

Birinchidan, jinoiy javobgarlikning joriy etilishi intellektual mulk huquqlarini buzishga nisbatan qat’iy choralarni qo‘llash imkonini beradi. Bu esa kontrafakt mahsulotlar bozorini qisqartirish va halol raqobatni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, zarar qoplangan hollarda ozodlikdan mahrum etish choralari qo‘llanmasligi adolat prinsipiga asoslangan “restituiv” yondashuvning ustuvorligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, amaliyotda huquqni qo‘llash jarayonida qator muammolar mavjud. Jumladan, ekspertiza institutining rivojlanmaganligi, huquqbuzarlik oqibatida yetkazilgan zararni aniq hisoblashdagi murakkabliklar, huquqni qo‘llash organlari o‘rtasida muvofiqlashtirishning yetarli emasligi va huquqiy savodxonlik darajasining pastligi. Shu bois normativ asoslarni mustahkamlash bilan bir qatorda institutsional va tashkiliy islohotlar ham amalga oshirilishi lozim.

Uchinchidan, xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, Yevropa mamlakatlarida bunday huquqbuzarliklar odatda fuqarolik-huquqiy nizolar sifatida ko‘riladi, Rossiya va Qozog‘istonda esa O‘zbekiston modeliga yaqin jinoiy normalar mavjud. Shu bois milliy yondashuv “kombinatsiyalashgan model” sifatida namoyon bo‘lib, xalqaro standartlar, mintaqaviy amaliyot va ichki ehtiyojlarni uyg‘unlashtirishga intiladi.

**Takliflar**

**Ekspertiza institutini rivojlantirish** – intellektual mulk sohasida mustaqil va tezkor ekspertiza tizimini shakllantirish, maxsus laboratoriyalarni jihozlash.

**Zararni hisoblash mezonlarini unifikatsiya qilish** – sud-amaliyotida yagona uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish, Oliy sud Plenum qarori qabul qilish.

**Organlararo muvofiqlashtirishni kuchaytirish** – bojxona, prokuratura, sud organlari hamda intellektual mulk muhofazasida vakolatli boshqa organlar o‘rtasida yagona elektron ma’lumot almashish tizimini joriy etish.

**Xalqaro hamkorlikni kengaytirish** – WIPO, WTO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan qo‘shma loyihalar orqali huquqni qo‘llash amaliyotini uyg‘unlashtirish.

Xulosa qilib aytganda, intellektual mulk obyektlarini jinoyat-huquqiy himoya qilish bo‘yicha O‘zbekistonda qabul qilingan yangi norma mamlakatning innovatsion rivojlanish konsepsiyasiga xizmat qiladigan muhim qadamdir. U nafaqat huquq egalarining manfaatlarini samarali himoya qilish, balki iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish va investitsion muhitni yaxshilashga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, amaliy muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish orqali ushbu islohotlarning samaradorligi yanada oshadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

[1] O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat, 1996. [2] O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga kiritilgan o‘zgartishlar to‘g‘risida Qonun, 2025-y. [3] Saidov A. X. Intellektual

mulk huquqi. – T.: TDYU nashriyoti, 2022. [4] Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS). – WTO, 1994. [5] Bently, L., & Sherman, B. *Intellectual Property Law*. – Oxford: OUP, 2014. [6] Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi, 146-moddasi; Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 198-moddasi.

[7] Saidov A. X. Intellektual mulk huquqi. – T.: TDYU nashriyoti, 2022. [8] O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari, 2024-yilgi hisobot. [9] Rahmonqulov U. Intellektual mulk huquqlarining huquqiy madaniyatdagi o‘rni // “Yuridik fanlar axborotnomasi”. – 2023. – №2. [10] Bently, L., & Sherman, B. *Intellectual Property Law*. – Oxford: OUP, 2014.

[11] Bently, L., & Sherman, B. *Intellectual Property Law*. – Oxford: OUP, 2014. [12] U.S. Code, Title 17 – Copyrights, §506. [13] Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi (1996-y.), 147-modda; Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat kodeksi (2014-y.), 198-modda. [14] Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS). – WTO, 1994.